



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 12-iyun, № 116 (8739)

Chorshanba Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI AQSH DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-iyun kuni Amerika Qo'shma Shtatlarining Savdo vakili Ketrin Tayni qabul qildi.



Amerika idorasi rahbari O'zbekiston yetakchisiga AQSh Prezidenti Jo Baydenning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuv davomida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ishbilarmonlik aloqalari faollashgani, o'zaro tovar ayirboshlash va

investitsiyalar ko'rsatkichlari barqaror o'sayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. AQShning "Air Products", "Coca-Cola", "Citibank", "Visa" va boshqa ko'plab yetakchi korxonalarini va banklari bilan kooperatsiya aloqalari rivojlanmoqda.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi, "GSP" tizimini qayta tiklash, "C5+1" formati hamda Savdo va investitsiyalar bo'yicha hadli

bitim doirasida amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bilan bogliq masalalar ko'rib chiqildi.

Sanoat kooperatsiyasi uchun yangi sohalarni aniqlash va tegishli loyihalarni ilgari surish bo'yicha qo'shma platformani ishga tushirish muhim ekanini ta'kidlandi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

OZARBAYJON BILAN MADANIY ALMASHINUV YANADA KENGAYISHI QO'LLAB-QUVVATLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-iyun kuni Ozarbayjon madaniyati kunlarini o'tkazish doirasida mamlakatimizda bo'lib turgan Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Adil Karimlini qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Adil Karimlini davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomlari va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini, shu jumladan, ustuvor hisoblangan gumanitar sohadagi aloqalarni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisi so'nggi yillarda madaniy almashinuv faollashganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Joriy yil boshidan buyon Boku shahrida O'zbekiston ilm-fani va madaniyati kunlari, ko'rgazma va "Lazgi" milliy baleti premyerasi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Ozarbayjon madaniyati kunlari doirasida shoir va mutafakkir Muhammad Fuzuliy kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Shuningdek, ko'rgazma, sahna asarlari namoyishlari va boshqa tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

"Yo'l xaritasi" asosida faol muloqotni va tadbirlarga boy madaniy dasturini davom ettirish, UNESCO, TURKSOY va ICESCO kabi xalqaro tashkilotlar doirasida qo'shma tashabbus va loyihalarni ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

O'zA.

KOREYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol 13 - 15-iyun kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston - Koreya do'stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi.

Savdo, innovatsiyalar va texnologiyalar almashinuv, energetika, elektronika va elektrotexnika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilmaviy rivojlanish va boshqa ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari e'tibor markazida bo'ladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohaslaridagi qo'shma dasturlar muhokama qilindi.

Shuningdek, mintaqaviy, shu jumladan, "Markaziy Osiyo - Koreya Respublikasi" formatidagi hamkorlik yuzasidan ham fikr almashish rejalashtirilgan.

Sammit yakunlari bo'yicha bir qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolashni ko'zda tutilgan. Tashrifning ishbarmonlik dasturi doirasida O'zbekiston va Janubiy Koreya Prezidentlari qo'shma biznes forumida ishtirok etadilar. Prezident Yun Sok Yol mamlakatimizning boy madaniy-tarixiy merosi bilan tanishish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyuradi.

O'zA.

Tashrif oldidan

O'zbekiston - Koreya Respublikasi:

KO'P ASRLIK DO'STLIK ALOQALARIGA SODIQLIK VA ALOHIDA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol 13 - 15-iyun kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ladi.

1992-yil 29-yanvarda o'rnatilgan O'zbekiston - Koreya Respublikasi diplomatik munosabatlari ikki davlat o'rtasida turli sohalardagi muvaffaqiyatli hamkorlik namunasini ko'rsatib kelmoqda. O'ttizi yildan ortiq davom etib kelayotgan o'zaro yaqin aloqalar bir necha asosiy bosqichlardan o'tib rivojlanib va mustahkamlandi. 2006-yilda ikki davlat o'rtasida Strategik hamkorlik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolangan bo'lsa, 2019-yilda munosabatlari alohida strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi.

Bu bosqichlar chuqur tarixiy aloqalarni aks ettiradi va o'zaro almashinuvlarning yuqori dinamikasi bilan ajralib turadi. Oliy darajadagi tashriflarning muntazam almashinuvini O'zbekiston - Koreya Respublikasi munosabatlari har ikki tomon uchun muhimligini ta'kidlaydi. Davlat rahbarlari ikki tomonlama hamkorlik va global masalalarni muhokama qilish uchun uchrashadilar. Mazkur uchrashuvlar turli sohalarda o'zaro anglashuvni chuqurlashtirish va hamijhatlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda hamda muhim shartnoma va hamkorlik memorandumlari imzolanishiga zamin yaratmoqda.

Parlamentlararo aloqalar O'zbekiston - Koreya Respublikasi munosabatlarida muhim o'ringa ega. Parlamentarlararo muntazam uchrashuv va delegatsiyalar almashinuvini ikki tomonlama hamkorlikning quvonchli bazasini rivojlantirish va xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda Parlamentlararo do'stlik guruhlari o'zaro tajriba almashishda faol ishtirok etayotir.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi turli xalqaro tashkilotlar va formatlar doirasida ham faol sheriklik qilib kelmoqda. Bunday ko'p tomonlama muzokaralar mamlakatlarga global va mintaqaviy masalalarni hal etishda sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, xalqaro maydonda o'z pozitsiyalarini mustahkamlash, tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslarni birgalikda ilgari surish imkonini berayпти.

Jumladan, rasmiy Seul xalqaro maydondagi hamkorlik doirasida O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va ichki taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash to'g'risida", "Ma'rifati va diniy bag'rikenglik" (2018), "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" (2019), "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida" (2022) rezolyutsiyalarini qo'llab-quvvatlashi va hammualliflaridan biri bo'ldi.

Koreya Respublikasi tomoni 2021 - 2023-yillarga mo'ljallangan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga O'zbekiston nomzodini, shuningdek, 2023-yilda Butunjahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi o'tkaziladigan joy sifatida Samarqand shahri nomzodini qo'llab-quvvatlashi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik sezilarli taraqqiyotni ko'rsatmoqda. 2023-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi qariyb 2,3 mld. dollarni tashkil etgani o'zaro manfaatdorlik darajasi yuqori ekanidan dalolat beradi. Jumladan, Koreya Respublikasi kompaniyalari O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda peshqadamlardan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

MUBORAK QURBON HAYITINI NISHONLASH TO'G'RSIDA

Muborak Qurbon hayitining ma'naviy hayotimizda mehroqibat, bag'rikenglik, muruvvat, do'stlik va hamijhatlik kabi ezgu tamoyillarni mustahkamlash borasidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu qutlug' ayyomni munosib kutib olish va yuqori saviyada o'tkazish, muqaddas islom dinining insonparvarlik g'oyalari hamda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug'lash maqsadida:

1. 2024-yilda muborak Qurbon hayitining birinchi kuni 16-iyun - yakshanba kuniga to'g'ri kelishi to'g'risida O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinib, yurtimizda 16-iyun kuni Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. Quyidagilar:

a) Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq: ishlanmaydigan bayram kuni hisoblanuvchi Qurbon hayitining birinchi kuni dam olish kuniga to'g'ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 17-iyun - dushanba kuniga ko'chirilishi;

b) bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlab va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmagligi;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrda "2024-yilda

rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida"gi PF-213-son Farmoni bilan 18-iyun - seshanba kuni barcha xodimlar uchun qo'shimcha dam olish kuni etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinib.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda muborak Qurbon hayitini xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Turizm qo'mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun muborak Qurbon hayiti kunlarida mo'tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamjolar ziyoratlarini tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

5. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M.Kamilov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2024-yil 11-iyun

O'ZBEKISTONDA OZARBAYJON MADANIYATI KUNLARI ISHTIROKCHILARIGA

Qadri mehmonlar! Aziz vatandoshlar! Xonimlar va janoblalr! Avvalo, bugungi ulkan voqea - O'zbekistonda Ozarbayjon madaniyati kunlarining tantanali ochilishi bilan barchangizni chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, keyingi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o'rtasida do'stlik va hamkorlik aloqalari jadal rivojlanib, mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Buni barcha sohalarda qatori madaniy-gumanitar yo'nalishdagi aloqalarimiz ham izchil rivojlanib borayotgani misolida barchamiz yaqqol ko'rib turibmiz.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti, aziz qardoshim Ilhom Geydarovich Aliyev bilan kelishuvlarimiz asosida o'tgan yili Ozarbayjonda O'zbekiston madaniyati kunlari, shu yil yanvar oyida esa O'zbekistonda fani va madaniyati kunlari yuksak saviyada o'tkazildi.

Qadimiy Ozarbayjon

zaminida o'zbekistonlik ilm-fan va madaniyat namoyandalari katta hurmat-e'tibor bilan kutib olingani, bu diyorda bo'lib o'tgan qizg'in va samimiy uchrashuv hamda muloqotlar, hech shubhasiz xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy qardoshlik munosabatlarini mustahkamlashga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Biz O'zbekistonda o'tkazilayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Baxshichilik va "Lazgi" festivallari hamda boshqa yirik madaniy tadbirlarda Ozarbayjon ijodkorlari muntazam ishtirok etib kelayotganini yuksak qadrlaymiz.

Ozarbayjonda milliy mug'om san'ati bo'yicha bo'lib o'tadigan an'anaviy festivalga o'zbek san'atkorlari doimiy taklif etib borilayotgani alohida diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda katta shodu xurramlik bilan boshlanayotgan Ozarbayjon madaniyati kunlari qardosh ozar zaminida bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniyati kunlarining uzviy davomidir.

Senator va hayot

MUROJAATCHI AYOLGA UY-JOY BERILADIGAN BO'LDI

Oliy Majlis Senati a'zolari fuqarolarning murojaatlariga doimiy tarzda e'tibor qaratib, ularni ijobiy hal etish choralari ko'rib kelmoqda.

Shu yilning 3 - 7-iyun kunlari parlament yuqori palatasiga jami 171 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 48 tasi elektron shaklda, 123 tasi yozma ravishda yuborilgan. Bundan tashqari, Senatning fuqarolar qabulxonasida 44 nafar fuqaro qabul qilindi.

Aksariyat murojaatlar senatorlar tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganilib, zarur choralar

ko'rilayotgani ham e'tiborga molik. Jumladan, Oliy Majlis Senati a'zosi A. Huseynova Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi "Eski qal'a" MFYda ijarada turuvchi fuqaro xonadoniga borib, u bilan muloqot o'tkazdi.

Ayol yolg'iz ona ekanini, qaramog'ida uch nafar farzandi borligini, sog'lig'i ham yaxshi emasligini bildirib, uy-joy masalasida yordam so'ragan edi.

E'tiborlisi, uning sharoiti inobatga olinib, Ijtimoiy himoya milliy agentligi Qorako'l tumani bo'limi hamda tuman hokimligi tomonidan ikki xonali ijtimoiy uy ajratish masalasi ko'rib chiqiladigan bo'ldi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, bu ayol oldin ham ish bilan ta'minlash masalasida murojaat qilgan hamda unga tikuv mashinasini berilgan va bepul tarzda o'quv kurslarida o'qitilgan edi. Ayolning ijtimoiy holati senator tomonidan nazoratga olingan.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston – Koreya Respublikasi:

KO'P ASRLIK DO'STLIK ALOQALARIGA SODIQLIK VA ALOHIDA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI

Ular energetika, qurilish, to'qimachilik va boshqa sohalarida turli loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda ushbu mamlakat kapitali ishtirokida 700 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda.

2024-yilda Seul shahrida O'zbekiston Savdo uynining ochilishi ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlar tarixidagi muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda mazkur savdo uyi O'zbekiston tovar va xizmatlarini Koreya Respublikasi bozorida ilgari surish, ikki davlat tadbirkorlari o'rtasida ishlabarmonlik aloqalarini o'rnatish uchun muhim maydonga aylangan.

Koreya – O'zbekiston ishlabarmonlar assotsiatsiyasi ham ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning muhim vositasi hisoblanadi. U tadbirkorlar o'rtasida vositachi bo'lib, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan biznes-forumlar, ko'ngazmalar, seminarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etayotir.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik keng ko'lam kasb etgan. Ushbu mamlakatning yurtimiz iqtisodiyotiga jalb etgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hajmi 7,5 mlrd. dollardan oshdi.

Janubiy Koreya, shuningdek, O'zbekistonga moliyaviy va texnik yordam ko'rsatyapti. Jumladan, mamlakat "Eksimbanki" bilan hamkorlik doirasida 1999-yildan buyon umumiy qiymati 2,6 mlrd. dollarlik 17 ta qo'shma loyihaga amalga oshirildi.

2020-yil dekabr oyida Koreya Respublikasi hukumati BM Tning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondiga 1 mln. AQSh dollari miqdorida moliyaviy yordam berish to'g'risidagi kelishuvni imzoladi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik chuqur ildizlarga ega. Ikki xalqning madaniyati, mentalitetining o'xshashligi mazkur jabhadagi ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shayotir.

O'zbekiston – Koreya Respublikasi munosabatlarining muhim yo'nalishi ta'lim va fan sohalaridagi aloqalardir. Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari Janubiy Koreyaning 45 dan ortiq oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. O'zbekistonda Janubiy Koreyaning 4 ta oliy o'quv yurtining filiallari ochilgan. Toshkent shahrida Inha, Puchon, Yodju, shuningdek, Farg'onadagi Koreya xalqaro universiteti filiallarining tashkil etilgani bu boradagi aloqalarni yangi pog'onaga ko'tardi.

Bundan tashqari, o'zbekistonlik talabalar Janubiy Koreyaning yetakchi universitetlarida ta'lim olish imkoniyatiga ega. Axborot texnologiyalari, tibbiyot va injiniring kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy almashinuvlar va qo'shma tadqiqotlar har ikki mamlakat ilmiy salohiyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lyapti.

Yurtimizning 9 ta oliy o'quv yurti, 24 ta maktab va litseyida koreys tili o'qitilmoqda. Janubiy Koreyaning Pusan va Tegsu shaharlaridagi xorijiy tillar universitetlarida, o'z navbatida, o'zbek tili bo'limlari tashkil etilgan. Shuningdek, Koreya Respublikasi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 11 mingdan oshadi.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi ilmiy hamkorlik biotexnologiya, nanotexnologiya, tibbiyot fanlari kabi yo'nalishlarda qo'shma tadqiqotlar olib borish orqali faol rivojlanmoqda. Ikki mamlakatning ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari ko'pshma loyihalar hamda olimlar almashinuvini amalga oshirayotgani ilmiy salohiyat va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilyapti.

Ikki mamlakat o'rtasida faol madaniy almashinuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

2014-yilda Toshkentda ochilgan Seul bog'i, shuningdek, Seul shahri markazida qad rostlagan ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haykali o'zbek va koreys xalqlari o'rtasidagi do'stlik ramzidir.

O'zbekistonda qariyb 180 mingdan ortiq etnik koreys millatiga mansub diaspora vakillari ham xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, o'zaro hamjihatlik va totuvlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi koreys diasporasi soni bo'yicha Markaziy Osiyoda eng ko'p, dunyoda esa beshinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda koreyslarning tili, madaniyati va an'analari asrab-avaylashda mamlakatimizning barcha hududida faoliyat yuritayotgan milliy madaniyat markazlari katta hissa qo'shmoqda.

Toshkentdagi Seul bog'ida koreys millatiga mansub yurdoshlarimiz O'zbekistonda yashayotganining 80 yilligi munosabati bilan yodgorlik monumenti ochildi. 2019-yil 20-aprelda esa Toshkent shahrida Koreys madaniyati va san'ati uyi ochildi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi sog'liqni saqlash sohasidagi aloqalar ham tobora rivojlanib bormoqda. Koreya Respublikasi O'zbekiston tibbiyot xodimlarini mamlakatning yetakchi klinikasi va markazlarida o'qitish hamda stajirovka o'tishda yordam ko'rsatmoqda.

2020-yilda "EDCF" jamg'armasi ko'magida Toshkent shahrida ko'p tarmoqli Bolalar milliy tibbiyot markazi qurilishi yakunlandi. Mazkur loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tibbiyot klasterini, jumladan, kattalar uchun ko'p tarmoqli shifoxona, onkologiya klinikasi, tibbiyot universitetini barpo etish, shuningdek, farmatsevtika klasterini yaratish bo'yicha yangi g'oyani ishlab chiqishga zamin hozirladi.

So'nggi yillarda Koreya Respublikasida O'zbekistonning sayyohlik yo'nalishlariga qiziqish ortib bormoqda. 2023-yilda mamlakatimizga Janubiy Koreyadan 35 mingdan ortiq sayyohlar tashrif buyurdi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar mavjudligi ham ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etayotir. Ikki mamlakat poytaxtlari va yirik shaharlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muntazam havo qatnovlari sayohatni yanada qulay qilib, biznes va turistlar oqimining o'sishiga muhim omil bo'layotir.

Bundan tashqari, o'zbekistonlik talabalar Janubiy Koreyaning yetakchi universitetlarida ta'lim olish imkoniyatiga ega. Axborot texnologiyalari, tibbiyot va injiniring kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy almashinuvlar va qo'shma tadqiqotlar har ikki mamlakat ilmiy salohiyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lyapti.

Yurtimizning 9 ta oliy o'quv yurti, 24 ta maktab va litseyida koreys tili o'qitilmoqda. Janubiy Koreyaning Pusan va Tegsu shaharlaridagi xorijiy tillar universitetlarida, o'z navbatida, o'zbek tili bo'limlari tashkil etilgan. Shuningdek, Koreya Respublikasi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 11 mingdan oshadi.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi ilmiy hamkorlik biotexnologiya, nanotexnologiya, tibbiyot fanlari kabi yo'nalishlarda qo'shma tadqiqotlar olib borish orqali faol rivojlanmoqda. Ikki mamlakatning ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari ko'pshma loyihalar hamda olimlar almashinuvini amalga oshirayotgani ilmiy salohiyat va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilyapti.

Ikki mamlakat o'rtasida faol madaniy almashinuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

2014-yilda Toshkentda ochilgan Seul bog'i, shuningdek, Seul shahri markazida qad rostlagan ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haykali o'zbek va koreys xalqlari o'rtasidagi do'stlik ramzidir.

O'zbekistonda qariyb 180 mingdan ortiq etnik koreys millatiga mansub diaspora vakillari ham xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, o'zaro hamjihatlik va totuvlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi koreys diasporasi soni bo'yicha Markaziy Osiyoda eng ko'p, dunyoda esa beshinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda koreyslarning tili, madaniyati va an'analari asrab-avaylashda mamlakatimizning barcha hududida faoliyat yuritayotgan milliy madaniyat markazlari katta hissa qo'shmoqda.

Toshkentdagi Seul bog'ida koreys millatiga mansub yurdoshlarimiz O'zbekistonda yashayotganining 80 yilligi munosabati bilan yodgorlik monumenti ochildi. 2019-yil 20-aprelda esa Toshkent shahrida Koreys madaniyati va san'ati uyi ochildi.

MAQSADIMIZ

Ma'lumki, insoniyat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan xatarli illatlardan biri, shubhasiz, korruptsiyadir. Shu bois oxirgi yillarda mamlakatimizda bu illatga qarshi keskin choralar ko'rib kelinmoqda. Buni yaqinda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi misolida ham kuzatish mumkin.

Yodingizda bo'lsa Prezidentimizning 2020-yil yanvar oyidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamiyatimizning barcha a'zolari "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmasligimiz alohida ta'kidlangan va shundan keyin korruptsiyaga qarshi tizimli chora-tadbirlar boshlab yuborilgandi.

KORRUPSIYAGA TO'LIQ BARHAM BERISH

Mushohada

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 6-iyuldagi "Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhtini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlarga yangicha sur'at bag'ishladi. Unda mamlakatimizda korruptsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurash olib borish choralarini barobarida ilg'or xalqaro standartlar asosida normativ- huquqiy bazani takomillashtirish vazifalari ham belgilab berilgan.

Shu asosda Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilindi va unda bir qator qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Ular quyidagilardan iborat:

- "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun;
- Davlat xizmatchilarining Odboxloq kodeksi;
- korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar ochiq elektron reestrini va u bilan bog'liq cheklavlarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan qonun;
- "Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to'g'risida"gi qonun;

- "Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish to'g'risida"gi qonun;
- Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilgan va (yoki) qonuniy talablarini bajarmagan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun;
- Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligiga manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnoma, buyruq va boshqa hujjatlar ijrosini to'xtatish to'g'risida tegishli organga taqdimnoma kiritish yoki uni haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudga da'vo kiritish vakolatini berishni nazarda tutuvchi qonun.

Aytish joizki, o'tgan davrda bu qonunlarning aksariyati, jumladan, joriy yil iyun oyida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun imzolandi va u rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboranolti oy o'tgach kuchga kiradi.

Qonun davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo'llaniladi. Unda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari etib qonuniylik; fuqarolar, tashkilotlar, jamiyatlar va davlatning qonuniy manfaatlar ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; xolislik; korruptsiyaga

nisbatan murosasizlik prinsiplari alohida belgilab qo'yilgan.

Ayni chog'da qonunda davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimi, manfaatlar to'qnashuvi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma, shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar tushunchalarining ma'nosi ochib berilgan. Ya'ni davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi, bu davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimda ishlayotgan boshqaruv xodimlari deb belgilandi. Yaqin qarindoshlar qatoriga esa ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari kiritilgan.

Qonunga binoan, davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari yoxud ushbu xodim yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ustav fondi aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs, shuningdek, xodim yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar deb e'tirof etiladi.

Aytish kerakki, "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatilgan manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi ham yangi tahrirda yanada kengaytirildi va tegishli qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan

(ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat deb belgilandi.

Qonunga muvofiq davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ular bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy manfaat bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi kerak bo'ladi.

Shu bilan birga, mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, tezda o'zining bevosita rahbarini yoki maxsus bo'linmani xabardor qilishi, o'zining bevosita bo'ysunuvdagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni o'zining shaxsiy manfaatini ko'zlovchi harakatga (harakatsizlikka) majburlamasligi, shuningdek, boshqa xodimlarga nisbatan o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi shart.

Davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimi manfaatlar to'qnashuvi o'ziga ma'lum bo'lib qolgan paytdan e'tiboran bir ish kunini ichida mavjud vaziyat haqidagi belgilangan shakldagi xabarnomani to'ldirishi va o'zining bevosita rahbariga yoki maxsus bo'linmaga taqdim etishi kerak bo'ladi. Masalan, yaqin qarindoshlari bevosita xodimning bo'ysunuvdagi ishga qabul qilingan yoki xodimning ishiga o'ziga aloqador shaxslar jalb etilgan bo'lsa, u o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etayotgan yoki yaqin qarindoshi tekshiruv o'tkazilayotgan obyektga tekshiruv bo'yicha mas'ul mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan bo'lsa, albatta, sal ilgari keltirib

o'tilgan harakatni amalga oshirishi talab etiladi.

Agar davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi shaxsiga doir ma'lumot o'zgartirgan taqdirda har yili 15-yanvardan kechiktirmay ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirishi lozim bo'ladi. Qolaversa, ishga qabul qilinayotgan nomzod yoki boshqa ishga o'tkazilgan xodim ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etadi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklav qo'llanishi mumkin. Masalan, manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni yashirishga, bila turib yolg'on axborot taqdim etishga, biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki nazoratidagi tashkilotda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga, tijorat tashkiloti ta'sischi, shu jumladan, aksiyadori, ishtirokchisi bo'lishga, o'zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilot nazoratida bo'lgan tijorat tashkilotlarining aksiyalariga yoki ustav kapitalidagi ulushlariga o'zi yoki yaqin qarindoshlari egalik qilishiga, ushbu tashkilotlar boshqaruv organi a'zosi bo'lishga haqli emas.

Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni davlat tomonidan bir qator organlar tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlar, ushbu idoralar o'dob-axloq komissiyasi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma, ushbu idoralarning korruptsiyaga qarshi ichki bo'linmalari va kadrlar bo'linmalari shular jumlasidandir.

Umuman, yangi qabul qilingan qonun jamiyatimizda korruptsiyaviy omillarni bartaraf etishda huquqiy asos vazifasini o'taydi. Unda belgilab qo'yilgan vazifalar ijrosini ta'minlash biz, xalq vakillaridan ham yuksak mas'uliyat talab qilinishi yaxshi tushunamiz.

Botir MATMURATOV, Oliy Majlis Senatning Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari.

USTUVOR TAMOYILLARNI AMALGA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Quyi palata Spikeri N. Ismoilov majlis avvalida o'tgan haftada yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqealarga to'xtalib o'tdi. Xususan, Prezidentimizning 6-iyun kuni Turkiyaga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi ko'p qirrali strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashda yangi istiqbollarni ochib bergani ta'kidlandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Davlatimiz rahbarining joylarga chiqib, barcha soha va tarmoqlardagi islohotlar samaradorligini tahlil qilib borishi o'ziga xos an'anaga aylanyotgani, ushbu amaliyot hududlardagi ishlarni to'g'ri tashkil etish va natijadorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynayotgani alohida urg'ulandi. Mamlakat rahbarining Yakkasaroy va Yashnobod tumanlarida bo'lib, jamoat xavfsizligi va sport sohalaridagi yangi obyektlar hamda mahallalarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishgani bunga misol qilib keltirildi. Shundan so'ng majlisda Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tartibga solishga, shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni amalga oshirishga, sudlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini to'laqonli himoyalashga, davlat mulkini boshqarish sohasini takomillashtirishga, ishga qabul qilishda fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratishga oid bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Hukumat a'zolari har yarim yilda quyi palataga hisobot taqdim etadi

Majlisda deputatlar tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Vazirlar Mahkamasining maqomi, tarkibi, uni shakllantirish tartibi, vakolatlari hamda faoliyatini tashkil etishga oid bir qator yangiliklar nazarda tutilyapti. Xususan, Bosh vazir, uning o'rinbosarlari va vazirlar bilan birgalikda har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot taqdim qilishi belgilanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib, Hukumatning iqtisodiyot, budget, moliya, soliq, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi vakolatlari qayta ko'rib chiqilmoqda. Qonun loyihasining 4-moddasida respublika

ijro etuvchi hokimiyat organlarining (vazirlik, qo'mita, agentlik, inspeksiya), xususan, hududiy bo'linmalar kesimidagi har birining maqomi, ularni tashkil qilish va tugatishning aniq, yagona tartibi hamda bir-biridan farqlovchi mezonlari belgilab berilmoqda. Shuningdek, vazirlarning o'zi rahbarlik qilayotgan vazirlikda ishni natijador va samarali tashkil etish, birkirilgan soha va tarmoqlarda yagona davlat siyosatini samarali olib boshqirish, uni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish, bu boradagi ishlarning ilmiy yakunigacha holati yuzasidan hisobot berish va uni ochiq e'lon qilish kabi yo'nalishlardagi mas'uliyati va shaxsiy javobgarligi kuchaytirilmoqda.

Muhokama davomida deputatlar bir qator aniqlashtiruvchi savollar va takliflarni o'rtaq tashladi. Ma'lum bir normalar yuzasidan tushuntirishlar so'raldi. Mas'ul qo'mita a'zolari tomonidan batafsil ma'lumotlar berildi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi Vazirlar Mahkamasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, Hukumat a'zolarining birkirilgan sohalarida aniq natijalarga erishishi uchun shaxsiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

Shaharsozlikka oid talablarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanmoqda

"Seysmik xavfsizlikni ta'minlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga hamda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartibi-taomillari to'g'risida"gi Qonunga shaharsozlikka oid qonunchilik talablarini buzganlik uchun jinoiy



ahamiyatli ekanini alohida ta'kidladi. Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

28 ta qonun hujjati yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilmoqda

Deputatlar tomonidan amaldagi qonun hujjatlarini yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga muvofiqlashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan 28 ta qonun hujjatiga ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari va erkinliklari bilan bog'liq huquqiy normalarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, Asosiy Qonunimizning 19-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqaidan qat'i nazar, qonun oldida tengligiga oid norma belgilanganligidan kelib chiqib, 22 ta qonunchilik hujjatining tegishli moddalariga yangi tahrirdagi Konstitutsiya matniga muvofiqlashtirish nuqtayi nazaridan o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Qayd etilganidek, qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan ishchi guruh a'zolari bilan birgalikda muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, qonun loyihasining nomi tegishli normasiga qo'shimcha kiritish nazarda tutilganligi sababli o'zgartirildi, ayrim tahriri o'zgartirishlar kiritildi.

Majlisda mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning so'zsiz va to'liq amalga oshirilishini, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarning Yangi O'zbekiston g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarilishini, yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda davlat organlarining faoliyati yo'lga qo'yilishini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Sudlarda prokuror vakolatini ta'minlash faoliyati yanada takomillashtiriladi

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – "Sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror



NAVBAHORNING 19 YOSHLI MILLIONERI

Navbahorlik Sarvar Andaqulov 5-sinfda o'qib yurgan kezlari ikki hovli naridagi xonadonda yo'lga qo'yilgan asalarichilikka qiziqib qoldi. Vaqt topdi deguncha o'sha hovliga o'tib, asalarichilik zahmatini tunu kun kuzatar, arilar chaqib, ko'zlari yumilib qolganiga ham parvo qilmasdi.

Intilish

Astoydil qiziqishimni ko'rgan bobom ikki quti asalari olib berdi, – deydi S. Andaqulov. – O'shanda yettinchi sinfga o'tgan edim. Shundan buyon har yili ularni ko'paytirib boraman.



Bugun Sarvar Andaqulov 19 yoshda. Qaramog'idagi asalarilar esa 100 qutiga yetgan. O'tgan yili har qutidan 20 kilogrammdan, jami 2 tonna bo'yig'ib, 160 million so'm daromad qildi.

Topganini 20 million so'mini asalarilariga xarajat qilganini inobatga olsak, u tengqurlari orasida ilk millioner hisoblanadi. To'g'ri, ayni kunda bu pulga nari borsa minilgan avtomashina xarid qilish mumkindir. Lekin bir kishining o'spirinlik chog'idayoq tadbirkorlik hadisini olib, hayotda o'z o'mini topganini inobatga olsak, uning ijtimoiy ahamiyati salmoqli ekanligi bilinadi.

Temur ESHBOYEV
("Xalq so'zi").



ELEKTR NOYOB NE'MAT

UNING TEJAB ISHLATILISHIDAN BARCHAMIZ MANFAATDORMIZ

So'nggi yillarda xalqimizni sifati va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada yurtimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish hajmi yildan-yilga ortmoqda. Binobarin, yurtimiz tobora taraqqiy etar ekan, shunga mutanosib tarzda zavodu fabrikalar soni ham ortib boryapti, tadbirkorlik subyektlari ko'paymoqda. Muhtasham va osmono'par turarjoylari madaniy-maishiy obyektlar safi kengayayotir. Tabiiyki, bunday taraqqiyot va yuksalishlarni elektr ta'minotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo tan olish kerak, elektr energiyasini hosil qilish va uzatish oson ish emas. Uning zamirida katta va mashaqqatli mehnat mujassam. Shunday ekan, undan tejab, tergab, oqilona foydalanish bugungi kunning muhim talabiga aylanoqda.

Dolzarb mavzu

Prezidentimiz raisligida shu yil 10-iyun kuni energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda energetika sohasi obyektlarining kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida aynan shu masala yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi. "Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh direktorining o'rinbosari Ahror ASHRAFKONOVning bu boradagi fikrlari bilan qiziqdik.

Xalqimizda "suvtekin" degan ibora bor. U odatda "bepul emas, ammo o'ta arzon" degan ma'noda ishlatiladi. Bugungi realikka mutlaqo to'g'ri kelmaydigan bunday ta'rifi ba'zi kishilar "elektr, bu bitmas-tuganmas manba, tunu kun yonib tursa ham hech kimning cho'ntagiga zarar solmaydi" deb noto'g'ri talqin qilishadi. Hatto bundaylar ko'p qavatli uy yo'lida yoki ko'chada kunduz kuni yonib turgan chiroqni o'chirib qo'yishga hafsala qilmaydi. Holbuki, har bir odam bittadan chiroqni o'chirganda ham bu bilan mamlakat miqyosida qanchadan-qancha elektr quvvatini asrab qolgan bo'ladi. Tejamkorlik aslida xalqimiz tabiatga xos fazilat ekaniga davlatimiz rahbari videoselektor yig'ilishida alohida urg'u berib, "Tejash

– yo'qotishlarni kamaytirish, tejamkor texnologiyalarni joriy qilish hisobiga bo'lishi shart" dedi. Aytmoqchimizki, yig'ilishda ishlarni eng og'ir mahallalardan boshlab, yil yakunigacha 30 ming kilometr tarmoq, 10 ming transformatorni yangilash

masalasiga e'tibor qaratildi. Bu jihatdan Toshkent shahrida ham qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Negaki, poytaxtimiz hududi tobora kengayib, turarjoy va madaniy-maishiy obyektlar, tadbirkorlik subyektlari soni ortib bormoqda. Bu esa elektr quvvatiga bo'lgan taqchillikni keltirib chiqarishi tabiiy. Shu bois biz joriy yilning mos davriga qadar 2 ta yangi podstansiyaning ishga tushirgan bo'lsak, yil yakuniga qadar yana 3 ta podstansiyaning foydalanishga topshirishni ko'zda tutganmiz. Toshkentimizning kun sayin go'zallashib, muhtasham va megapolis shahriga aylanib borishida elektr ta'minoti muhim rol o'ynaydi. E'tibor bering, o'rta hisobda yiliga poytaxtimizga 30 mingga yaqin iste'molchilar qo'shilyapti. Bu aytishga oson.

Shuncha iste'molchini barqaror elektr quvvati bilan ta'minlash uchun qo'shimcha manbalarni ishga tushirishga to'g'ri kelyapti. Shuning hisobiga qo'shimcha tarmoq va transformatorlar o'rnatyapmiz. Hozirgi kunda shahrimizda 780 mingdan ziyod iste'molchilar bo'lsa, shuning 30 mingtasi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Selektorda Prezidentimiz muqobil energiyadan unumli foydalanishning nafaqat elektr ta'minotidagi barqarorlikka ta'siri, balki ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga ham muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Bu borada Toshkent shahrida ham keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy sohada, tadbirkorlikda birinchi qilinayotgan ish quyosh elektr stansiyalarini joriy etishga qaratilmoqda. Bu degani, elektr energiyani atrof-muhitga zarar keltiruvchi manbalardan emas, tepamizda beminnat nur sochib turgan quyoshdan olish bilan bog'liqdir. Qolaversa, quyosh panellarini o'rnatgan xonadon nanki o'zini elektr bilan ta'minlaydi, ortgan energiyani sotib, daromad ham ko'radi. Bugungi kunda shahrimizda

Muxtasar aytganda, elektr bebaho ne'mat. Uning isrofi bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, asrash mas'uliyati barchamiz uchun vijdon ishiga aylinishi kerak.

300 dan oshiq yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektlari quyosh elektr stansiyalari o'rnatib, shartnoma asosida ortiqcha elektr quvvatini bizga yetkazib bermoqda. Quvonarlisi, bu kabi foydali ish aholi tomonidan ham amalga oshirilayotir. Ya'ni shu kunlarda 500 dan ortiq jismoniy shaxslar ham quyosh panellari o'rnatib, iste'moldan ortiqcha elektr quvvatini sotib, daromad topmoqda.

Yig'ilishda yana bir muhim masalaga e'tibor qaratildi. Bu – har bir elektromobil uchun quvvatlaniradigan uskunalar bo'lishi lozimligi bilan bog'liq. Chunki elektromobillar qancha ko'paysa, havo shuncha toza va musaffo bo'ladi. Bu ishni aslo kechiktirib bo'lmaydi. Bunday avtoulavlarning soni uch yilda 10 karra oshib, 35 mingtaga yetgani qayd etildi.

Elektromobillarning ko'p qismi Toshkent shahrida ekaniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, endilikda uni uyda quvvatlashni rag'batlantiradigan tungi tarif joriy qilish, uskunaga hisoblagich o'rnatganlarga tungi vaqtda quvvatlanlik uchun arzon tarif qo'llanishi belgilangani aholi uchun katta imtiyoz yaratadi. Ko'p qavatli uylar yonida, savdo markazlari, mehmonxona hamda dam olish maskanlari avtoturargohlarida quvvatlash stansiyalarini qurishning ahamiyati katta. Maqsad – elektrni tejash va uni xalqimiz farovonligi, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida sarflash ekan, bu yo'nalishda davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarni og'ishmay amalga oshiramiz.

Muxtasar aytganda, elektr bebaho ne'mat. Uning isrofi bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, asrash mas'uliyati barchamiz uchun vijdon ishiga aylinishi kerak.

F. XUDOYBERDIYEV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

QISQA SATRLARDA

Fuzuliy merosiga ehtimom

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida buyuk ozar shoiri Fuzuliy tavalludining 530-yilligiga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy anjuman uyushtirildi.

Mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan Ozarbayjon madaniyati kunlari doirasidagi ushbu tadbirda ikki qardosh yurtning madaniyat, adabiyot sohasi vakillari, olimlar, tadqiqotchilar, talabalar qatnashdi.

Anjumanda Fuzuliyning ikki jildlik "Kulliyoti" taqdimoti ham o'tkazildi.

"Zakovat" topqirlikka undaydi

O'zbekistonning Londondagi elchixonasida Buyuk Britaniya oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yosh vatandoshlar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.



Bellashuvda "El-yurtumidi" jamg'armasi stipendiatlaridan tashkil topgan 8 ta jamoa ishtirok etdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra "Nukus" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi va munosib taqdirlandi.

"Termiz – Urumchi savdoyi" ish boshladi

Termiz shahrida "Termiz – Urumchi savdo uyi" o'z faoliyatini boshladi.

Mazkur savdo uyi Xitoyda ishlab chiqarilgan jihat va uskunalarini keltirib o'rnatish hamda xitoylik tajribali mutaxassislar yordamida ishga tushirishda qator qulaylik yaratadi. Logistika va transport xizmatlaridan foydalanishga ko'maklashadi. Bu kabi ishlar viloyat tadbirkorlarining Xitoy ishlabarmon doira vakillari bilan aloqalarini, o'zaro sheriklik va foydali muloqotini yanada faollashtiradi.

Ma'lumot uchun, aprel oyida Xitoy Xalq Respublikasining Urumchi shahrida "Surxondaryo – Urumchi" savdo uyi ochilgan edi.

Havo kemalariga texnik xizmat

"Uzbekistan Airports" AJ va Italiyaning "EU Wings" kompaniyasi hamkorlik shartnomasini imzoladi.

Ushbu shartnoma doirasida Italiyaning "EU Wings Srl" kompaniyasi Toshkent, Buxoro, Navoiy, Urganch, Namangan va Farg'ona xalqaro aeroportlarida havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatadi.

Bu, o'z navbatida, O'zbekiston aeroportlariga yangi xorijiy aviatashuvchilarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratadi va qo'shimcha ish o'rinlari ochish imkonini beradi.

400 nafar bitiruvchi ishli bo'ldi

Andijon viloyatining Baliqchi tumanida "Mehnat yarmarkasi" tashkil etildi. 1 ming 200 nafar bitiruvchi qatnashgan ushbu yarmarkada 50 dan ortiq ish beruvchilar tomonidan ish o'rinlari tavsiya qilindi.



Tadbir davomida bitiruvchilar korxonaga va tashkilotlardagi sharoitlar, oylik maosh haqida yetarli ma'lumotga ega bo'ldilar. Shu kuni 400 nafar yosh ishga kirish uchun o'zaro shartnoma tuzishga erishgan bo'lsa, boshqalariga mutaxassislar tomonidan huquqiy maslahatlar berildi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devoni Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalarini qo'mitasi kotibiyati bosh maslahatchisi Ildar Azizovga volidai muhtaramasi

AZIZA ayaning vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor etadi.

OSHIRISHDA KREATIV YONDASHUV

vakolatini ta'minlash faoliyati yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini o'z yo'li bilan ta'sirchan himoya qilishga erishishda sudlarda ishlar ko'rilishida ishtirok etuvchi prokurorlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish odil sudlovni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlar, davlat mulki, atrof-muhitni muhofaza etish haqidagi qonunchilik buzilishi, Davlat budjetidan undiruvlar, o'z boshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish, xususiy mulk sifatida egalik qilish va undan foydalanish faktini aniqlash hamda bojxona to'lovlarini undirishga oid ishlarda qatnashishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, prokuror ishtiroki nazarda tutilgan fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha prokuror sud majlisi vaqti va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor etilmagan bo'lsa, u ushbu ishlarni sudtan talab qilib olib o'rganishi hamda ular bo'yicha protest keltirishi mumkinligi mustahkamlanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Davlat mulki obyektlarini "no'l" xarid qiymati bo'yicha realizatsiya qilish tartibi bekor bo'lmoqda

Majlisda "Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan davlat mulkini qarog'va qo'yish, baholash va ommaviy savdolariga chiqarish, davlat mulki obyektlarini "no'l" xarid qiymati bo'yicha realizatsiya qilish tartibini bekor qilish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalarining homiylikka sarflanadigan xarajatlari, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bilan bog'liq normalar belgilanmoqda.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasidagi normalarga o'z munosabatlarini

bildirib, ularni takomillashtirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berdi.

Deputatlarning ta'kidlashicha, qonun loyihasining qabul qilinishi davlat aktivlarini zamonaviy uslublar asosida sotish orqali xususiy lashtirishni jadallashtirish, bu jarayonlarning ochiq va oshkorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Yana bir muhim Konvensiya ratifikatsiya qilinmoqda

Deputatlar "Xalqaro mehnat tashkilotining To'liqsiz ish vaqti sharoitlarida ishlab to'g'risidagi 175-sonli Konvensiyasini (Geneva, 1994-yil 24-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Majlisda deputatlar tomonidan keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro mehnat tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanib borayotgani, milliy mehnat qonunchiligining xalqaro mehnat standartlariga javob beruvchi joriy holatini hisobga olgan holda mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilish maqsadga muvofiq ekanligi qayd etildi.

Mamlakatimizning ushbu Konvensiyaga qo'shilishi kelgusida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida belgilangan to'liqsiz ish vaqti sharoitida ishlovchi ishchilarning mehnat sharoitlari, ularning mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy ta'minot bo'yicha kamsitishlardan himoya qilish, ishchilarning bandligini ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarni samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonning kelgusida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, shu jumladan, Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuvi uchun sharoit yaratiladi, preferensiyalar umumiy (bosh) tizimi doirasida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik yanada rivojlaniriladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

Barcha uchun teng imkoniyat yaratiladi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan



– "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 37-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Biroq bugungi kunda fuqarolarni ularning yaqin qarindoshlarida sudlanganlik, shu jumladan, tugallangan sudlanganlik holati mavjudligi sababli ishga qabul qilinishi qonunga xilof ravishda rad etish hollari uchray turibdi.

Mazkur qonun loyihasi bilan fuqarolarni ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishni taqiqlash, shuningdek, fuqarolarning mehnatga oid huquqlarini ishonchli himoya qilish va ularning mehnat munosabatlarida qo'shimcha kafolatlar yaratish maqsadida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunga hamda Mehnat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi "qarindoshining sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinishidagi va uni o'tashdagi huquqlari cheklanishi uchun asos bo'lishi mumkin emas" degan jumalar bilan to'ldirilmoqda.

Muhokama davomida deputatlar ushbu qonun loyihasining ahamiyati va ayni chog'da zaruratiga alohida e'tibor qaratib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha o'z taklif va fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolar himoyasining huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, shuningdek, ularning

huquqlarini amalga oshirishda, jumladan, ishga qabulda teng imkoniyatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

"Tashabbusli budjet" bo'yicha Bosh vazir o'rinbosariga parlament so'rovi yuborildi

Majlisda deputatlar Bosh vazir o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo'chqorovga "Tashabbusli budjeti" asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish va ularning natijadorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Ma'lum qilinganidek, Prezidentimizning "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan tuman (shahar)lar tegishli budjetlarida tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizini hamda mahalliy budjetlar qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foiz qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish belgilab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, bugungi kunda fuqarolar budjet mablag'larining shakllanishidan boshlab to' uning sarflanishigacha bo'lgan jarayonlarni nafaqat kuzatib borish, balki unda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. "Ochiq budjet" va "Tashabbusli budjet" kabi loyihalarning hayotga tatbiq qilinishi ochiqchilik va shaffoflik sari jiddiy qadam bo'ldi. Muhimi, fuqarolarning budjet masalalariga e'tibori kuchaydi, budjetni taqsimlaydigan idoralar mas'uliyati ortdi, deputatlarning ham nazorati oshdi.

Majlisda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar e'tirof etilgan holda deputatlarining saylov o'kruglaridagi uchrashuvlari chog'ida aholi tomonidan "Tashabbusli budjet" asosida loyihalarni tanlab olish hamda ularni moliyalashtirish jarayonlari yuzasidan ayrim e'tirozlar bildirilayotgani aytiladi.

Shundan kelib chiqib, majlisda fuqarolar takliflari asosida shakllangan "Tashabbusli budjet" loyihasini yanada takomillashtirish, tanlov g'oliblarini aniqlashda inson omilini mumkin qadar qisqartirish borasida ko'rilayotgan choralar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Bosh vazir o'rinbosariga parlament so'rovi yuborildi.

"Xalq so'zi".

KO'P QIRRALI HAMKORLIK YO'LIDAGI TARIXIY VOQEA

Markaziy Osiyoni yagona mintaq sifatida rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligini inobatga olgan holda, davlatimiz rahbari tomonidan mintaqadagi mamlakatlar bilan barcha yo'nalishda, jumladan, transport sohasida konstruktiv va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan edi. Negaki, transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish va tranzit yuk tashish hajmini kengaytirish mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishning muhim omilidir.

Nuqtai nazar

O'tgan hafta Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston temir yo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish to'g'risidagi bitimning imzolaniishi bu yo'lidagi katta yutuqlardan biri bo'ldi. Bu mamlakatlarimiz o'rtasida qaror topgan an'anaviy yaqin va ko'p qirrali hamkorlik yo'lidagi chinakam tarixiy voqea, desak, adashmagan bo'lamiz. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Transkontinental transport va tranzit koridorining ajralmas qismi hisoblanuvchi ushbu muhim infratuzilma loyihasi barcha uch mamlakat - O'zbekiston, Qirg'iziston va Xitoyning manfaatlariga to'liq mos keladi. Yangi temir yo'l Xitoy bilan iqtisodiy hamkorligimizni kengaytirib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.



Turkiya va Yevropa Ittifoqi yo'nalishi bo'yicha davom etishi, masofani 900 kilometr, yukning yo'lidagi vaqtini sakkiz kunga qisqartirishi mumkin. Qolaversa, Yevropadagi ziddiyatlar, 2023-yil oktabrda boshlangan Isroilning G'azodagi urushi xalqaro yuk tashuvchilarni yangi yo'nalishlarni qidirib topishga undadi. Yuk tashishda Markaziy Osiyo marshrutining afzalligi haqida tobora ko'p gapirila boshlandi.

Qadimiy aloqalarning zamonaviy talqini

Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston temir yo'li tarixiy Buyuk Ipak yo'li bo'ylab o'tadi. Darhaqiqat, loyiha ishtirokchilari bo'lgan bu davlatlar ko'p asrlar davomida savdo aloqalari va madaniy almashinuv rivojiga xizmat qilgan ushbu qadimiy yo'lni zamonaviy sharoitda qayta tiklashga kirishmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur temir yo'l Xitoyning mintaqamiz bilan bog'lovchi eng qisqa quruqlik yo'lga aynaladi. Tahillarning ko'rsatishicha, uning barpo etilishi ortib borayotgan yuk tashish sifatini oshirish, sarflanadigan vaqt va narxni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Mutaxassislarining hisob-kitobicha, yuk tashish hajmi yiliga 15 million tonnagacha yetishi mumkin, tovarlarni yakuniy iste'molchilarga yetkazish muddati esa 7 kunga qisqaradi. Bundan tashqari, zamonaviy tranzit va logistika infratuzilmasi, omborxonalar va terminallar yaratiladi.

Loyihaning amalga oshirilishi oqibatida vujudga keladigan ijobiy iqtisodiy ta'sirini barcha mamlakatlar his qiladi. Avvalo, yangi korxonalar va o'rnatilgan ish o'rinlari yaratiladi, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi va sanoat kooperatsiyasi ko'lamini, investitsiyaviy jozibadorlik o'sadi va asosiy natija - fuqarolarimizning turmush darajasi oshadi. Kelgusida ushbu yo'l mamlakatlarimizga istiqbolli transaf'g'on yo'lga orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarining keng bozorlariga chiqish imkonini beradi, tranzit salohiyati va mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni sezilarli darajada jipslashtiradi.

Bu yo'l Xitoy uchun ham Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqni bog'laydigan eng istiqbolli, eng qisqa yo'l. Hozirgi kunda Xitoy o'z yuklarini Yevropaga Xitoy - Mo'g'uliston - Rossiya - Belarus - Yevropa Ittifoqi (8650 km.), Xitoy - Qozog'iston - Kaspiy dengizi - Ozarbayjon - Gruziya - Turkiya - Yevropa Ittifoqi (9120 km.), Xitoy - Qozog'iston - Turkmaniston - Eron - Turkiya - Yevropa Ittifoqi (10170 km.), Xitoy - Yevropa Ittifoqi dengiz yo'li (10 000 kilometr) orqali yo'nalishlari orqali jo'natyapti. Yangi Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston yangi temir yo'li mavjud Turkmaniston - Eron -

chiqish imkonini beradi. Janubiy Osiyo geografik jihatdan Markaziy Osiyoga nihoyatda yaqin. Masalan, Termiz shahridan Pokistonning Karachi portigacha atigi 660 kilometr yo'l bosish kifoya. Bu hatto mamlakatdagi bir shahardan ikkinchisigacha bo'lgan masofadan ham kam. Shu nuqtayi nazardan, Mozori-Sharif - Kobul - Peshovar yo'nalishi Markaziy Osiyodan Hind okeaniga olib boruvchi eng qisqa yo'l ekanini qayd etish joiz.

Dengiz portlariga chiqish hamda bu bo'yicha qulay transport koridorlarini yaratish O'zbekiston uchun strategik vazifa. Busiz dunyo bilan savdo-sotiq qilishimiz, milliy mahsulotlarning hamyonbopligini ta'minlashimiz, eksport salohiyatini oshirib, iqtisodiy taraqqiyot sari ildamlashimiz imkonsiz. Yaqin-yaqingacha Afg'oniston va Pokistonga faqat tahdid manbai sifatida qaralardi. Ulardan imkon qadar uzoqlashtirish, barcha darajadagi aloqalarni formal tusda olib borish tendensiyasi mavjud edi. Biroq 2016-yilda O'zbekiston bu masalaga yondashuvini keskin o'zgartirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan tarixda birinchi marotaba qo'shni Afg'onistonni imkoniyatlar mamlakati, deya e'tirof eta boshladik. Avvalroq

O'zbekiston - Turkmaniston - Eron - O'mon transport-tranzit yo'nalishining muhim bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida avtobus yo'nalishlari, tezyurar temir yo'l aloqalari ishga tushirildi. Qirg'iziston bilan Markaziy Osiyodan ilk bor to'g'ridan-to'g'ri Xitoyga chiqadigan nazardan, Andijon - O'sh - Irkeshtom - Qashqar avtomobil yo'lga bo'yicha qatnov yo'lga qo'yildi.

Yuqoridagi aytilgan O'zbekiston - Qirg'iziston - Xitoy temir yo'li loyihasining amalga oshirilishi loyiha ishtirokchilari hamda Markaziy Osiyoning boshqa barcha davlatlari va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, 2023-yilda Xitoy 2 trillion dollardan ortiq qiymatdagi mahsulotlarni import qildi. SHHT mamlakatlari bo'yicha bu ko'rsatkich 300 milliard dollarni tashkil etdi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin 15 yil ichida Xitoy importini 30 trillion dollarga yetkazmoqchi. Shuni ta'kidlash kerakki, tovarlarni Xitoydan Yevropaga Markaziy Osiyo orqali tashish masofasi dengiz yo'lga qaraganda 2 barobar, Rossiya orqali o'tadigan transport yo'lga nisbatan esa 2,5 barobarga qisqaradi.

“ Muqobil transport marshrutlaridan foydalanish xorijiy hamkorlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, O'zbekiston jahon bozorlariga chiqish uchun yanada maqbul variantlarni izlashda davom etyapti. ”

Hindiston bilan ikki tomonlama hamkorlikni kuchaytirgan O'zbekiston Erning Chobahar portigacha cho'zilgan Mozori-Sharif - Hirot temir yo'li qurilishidan manfaatdorligini bildirdi. Endilikda Pokiston bilan aloqalarni mustahkamlash asnosida mamlakatimiz yana bir yirik transport-logistik loyiha - Peshavorga olib boruvchi transaf'g'on temir yo'li qurilishiga bosh qo'shmoqda. Chunki buning ortida, avvalambor, iqtisodiy manfaat yotibdi.

Janubiy Osiyo mintaqasi bilan yaqinlashishimizning asl sababi ham shunda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-yubiley sessiyasida ilgari surgan BMT ko'magi ostida transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish bo'yicha Mintaqaviy markazni tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi Markaziy Osiyo mintaqasida transport-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga va ushbu yo'nalishdagi muammolarning samarali yechimini topishga qaratilgan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko'rmoqda. Bu yo'nalishda bir qator amaliy ishlar bajarildi. Jumladan, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida havo qatnovi va G'alaba - Amuzang - Xushadi temir yo'li tiklandi. O'zbekiston va Turkmaniston sa'y-harakatlari bilan Amudaryo orqali o'tadigan Turkmanbob - Forob yangi temir yo'l va avtomobil ko'priklari ochildi. Bu yo'l yuk tashish hajmini 2,5 barobar oshirish imkonini berdi. Amudaryo orqali o'tadigan ko'priklar yuk oqimlarini Osiyo va Tinch okeani mintaqasi, Janubiy Osiyo davlatlaridan Kaspiy dengizi, undan keyin Qora dengiz va O'rta Yer dengizi mintaqasi, Yevropa, Kavkazorti, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga to'g'ridan-to'g'ri olib chiqish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu ko'priklar

Istiqbolga yo'naltirilgan tashabbuslar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT shafeligidagi transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish bo'yicha Mintaqaviy markazni tashkil etish tashabbusi mintaqada transport-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga va bir qator ustuvor rejalarni ro'yogga chiqarishda, jumladan, mintaqada transport-logistika sohasini umumiy rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturlar va strategik ahamiyatga ega hujjatlarini qabul qilishga, to'siqlarni bartaraf etish va istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish bo'yicha yondashuvlarni aniqlash chora-tadbirlar asosida amalga oshirishga yo'naltirilgan. Qolaversa, Mintaqaviy markazning tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyoda transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilgari surgan bir qator tashabbuslarini amalga oshirishga, jumladan, Markaziy Osiyoning mintaqaviy transport yo'laklarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va shu asosida Markaziy Osiyo transport tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dastur qabul qilish hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari transport kommunikatsiyalari bo'yicha mintaqaviy kengashni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning transport tranzit yo'laklarini rivojlantirish tashabbusini ilgari surayotgani bejiz emas. O'zbekiston tashqi savdosi ta'minot zanjirlarining uzilishi va transport xarajatlarning oshishidan aziyat chekmoqda. Bunga, xususan, mamlakatimizning dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmasligi va mavjud transport yo'nalishlariga qaramligi ham sabab bo'lyapti. Bundan tashqari, Yevropa kelajakda O'zbekiston eksportini diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynashi ehtimoldan xoli emas. Tahlilchilarning fikr bildirishlaricha,

O'zbekiston uchun ham yangi imkoniyatlar ochilmoqda, chunki "O'rta yo'lak"ning kengayishi tovarlar oqimini O'zbekistonga yaqinlashtiradi va hatto qisman mamlakat orqali yo'naltiradi, bu esa xalqaro transport-logistika zanjirlariga integratsiyalashuviga hissa qo'shishi kerak.

Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Turkmanistonning Turkmanboshi porti orqali eksportni allaqachon amalga oshirmoqda. "O'rta yo'lak" O'zbekistonning mintaqaviy logistika markaziga aylanish rejalari uddalashga ham yo'l ochishi joiz. O'rta muddatli istiqbolda xalqaro qiymat zanjirlari va bozorlar bilan aloqalarni yaxshilash orqali O'zbekiston "O'rta yo'lak"ni kengaytirishdan foyda ko'rishi mumkin. Harqalay, o'tgan yillarda ichida O'zbekiston tashqi savdo marshrutlarini birmuncha diversifikatsiyalashga erishdi. Ilgari faqat shimolga yo'nalgan xalqaro temir yo'lidan foydalanardik. O'tgan asrning 90-yillari ikkinchi yarmida esa Tejen shahri (Turkmaniston) orqali Fors ko'rfaziga chiqish hamda Erning Bandar-Abbos dengiz portidan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Darvoqe, o'z vaqtida o'zbek paxtasi aynan shu yo'l bilan janubiy bozorlarga yetkazib berilgan. Yangi yo'nalish hisobiga respublikaning transport xarajatlari birmuncha qisqardi.

Keyinchalik Qozog'iston orqali Sharqiy Xitoyga yo'l ochildi. Bundan tashqari, oxirgi ikki-uch yildan buyon mamlakatimiz logistika kompaniyalari yuk konteynerlarini O'rta Yer dengizi, jumladan, Turkiya portlariga jo'natyapti. Bunda Janubiy Kavkaz (Boku - Tbilisi - Kars) transport yo'lga, ayniqsa, qo'l kelmoqda. Ko'rinib turganidek, endilikda O'zbekiston yuk tashuvlarida faqat shimoliy yo'nalish - Qozog'iston va Rossiya bog'lanib qolmagan. Muqobil transport marshrutlaridan foydalanish xorijiy hamkorlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, O'zbekiston jahon bozorlariga chiqish uchun yanada maqbul variantlarni izlashda davom etyapti.

Hozirgi kunda Transevropo transport koridorlarining faollashuvini kuzataymiz. Ular jahon savdosining yirik subyektlari - Yevropa mamlakatlari, Xitoy va Hindistonning bir-biri bilan bog'laydi. O'zbekiston ushbu vaziyatdan unumli foydalanishga harakat qilmoqda. Buning uchun, avvalo, transport marshrutlarini diversifikatsiyalash, ya'ni faqat dengiz yoki faqat quruqlikdagi yo'llar bilan cheklanib qolmaslik zarur. O'zbekistonning amaldagi transport siyosati xuddi shu mantiqqa asoslangan. Bugungi kunda O'zbekiston qiziqish bildirayotgan transport koridorlari aslida xalqaro logistika tizimining bir bo'lga sanaladi. Ushbu yirik loyihalar mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlariga javob beradi.

Global integratsiya va hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etish, shuningdek, jahon bozorlariga chiqish uchun transport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish zarur. Shuning uchun O'zbekiston tomonidan Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston va Mozori-Sharif - Kobul - Peshovar temir yo'llari loyihalari ilgari surilmoqda. Bu loyihalar strategik ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat O'zbekiston, balki ushbu hududlar uchun ham yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Biz o'z idomizga 2030-yilga borib dunyoning aholi daromadlari o'rta o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olishni aniq maqsad qilib qo'yganimiz. Demak, yangi istiqbolli transport yo'laklari har doimgidan muhim ahamiyatga ega.

Sadriiddin TUROBJONOV, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, akademik.

Tibbiyot

UYDAN CHIQMASDAN SHIFOKOR QABULIGA YOZILISH MUMKIN

Tibbiyot sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasidagi sa'y-harakatlar sababli Namangan shahridagi 12-oilaviy poliklinikada aholiga xizmat ko'rsatish ishlarini raqamli asosga ko'chirish imkoniyati yaratildi.



Gap shundaki, ushbu muassasaga optik tolali aloqa tarmog'i o'tkazilib, kompyuterlar to'liq internetga ulandi hamda aholi ro'yxati shakllantirildi. Bu yerda ishga tushirilgan "elektron poliklinika" tizimi avtomatlashtirilgan elektron ambulator kartani yuritish, aholiga onlayn usulda, ya'ni uydan chiqmasdan yashash joyi bo'yicha shifokor qabuliga yozilish, fuqaroga qulay vaqtda tibbiy xizmat olish imkonini berishi bilan bir qatari afzalliklarga ega.

E'tiborli jihati, joriy etilgan yangilik orqali har bir fuqaro salomatligiga doir barcha ma'lumot yagona elektron bazaga jamlanadi. Aytaylik, fuqaroning qon guruhi, yoshligiga qanday kasallik bilan og'rigani, nimaga allergiyasi borligi, avval qanday muolajalar olgani singari barcha ma'lumot ushbu bazada aks etib turadi. Poliklinika shifokori bemor huzuriga kelguniga qadar u xususida barcha ma'lumotga ega bo'ladi. Bu bilan tizimda ko'pchilikning vaqtini oladigan ortiqcha qog'o'zbozlikka barham beriladi. Vaqt tejaladi, tibbiy xizmat sifati va samaradorligi oshadi.

Shu o'rinda tibbiy muassasada o'zgarishlarni

moliyalashtirishda "Tashabbusli budget" imkoniyatlarini ta'kidlash joiz. Poliklinika jamoasi ushbu axborot portali dasturi asosida ketma-ket to'rt marotaba fuqarolar tomonidan ovoz yig'ish orqali g'olib chiqib, 2 milliard 82 million so'm mablaqqa ega bo'ldi.

Buning hisobidan muassasa binosi qayta ta'mirdan chiqarilib, sifatli tibbiy xizmat uchun zarur qulay sharoitlar hozirlandi. Viloyatda yagona bo'lgan zamonaviy rentgen apparati, 30 ta yangi rusumli kompyuter, quyosh panellari bilan jihozlandi.

Shahar va tumanlardagi birlamchi bo'g'in muassasalari alohida dastur asosida bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda, - deydi Namangan viloyati solig'ini saqlash boshqarmasi mutaxassisi Xumoyun Ahmadjonov. - Ayni paytda joylardagi 25 ta oilaviy poliklinika to'liq elektron tizimda ishlayotgan o'tkazildi. Kelgusi yil oxiriga qadar mavjud 194 ta poliklinikaning barchasida raqamlashtirilgan tartibda xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Qudratilla NAJMIDDINOV ("Xalq so'zi").

REKLAMA

TABIY GAZNING NARX VA TARIFLARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasining yig'ilish bayoni qaroriga muvofiq, ayrim neft-gaz tarmog'i korxonalariga sotiladigan tabiiy gazning yangi narx va tariflari belgilangan.

Unga ko'ra "UZGasTrade" AJ tomonidan "Hududgazta'minot" AJga 2024-yil 1-iyuldan sotiladigan tabiiy gazning 1 ming kub metri uchun tarifi qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda 940 000 so'mni tashkil qiladi.

«UZGASTRIDE» AKSIYADORLIK JAMIYATI.

Latviyaning mashhur Yurmala shahrida tashkil etilgan xalqaro festivalda O'zbekiston turizm salohiyati keng namoyish qilindi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo
MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT
2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.
Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.
TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 00.32 Topshirildi - 01.20 1 2 3 4 5 6